



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2026
1-сон



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 yil, 1-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008 yil 31 dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e‘tirof etilgan

Tahririyat a‘zolari:

Mas‘ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardaev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardaeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay‘ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay‘ati raisi o‘rinbosari:

M.Q.Pardayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Tahrir hay‘ati a‘zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Pardayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

Farrux Shadiyorovich Shanazarov Ijtimoiy xizmatlarning inson kapitaliga ta’siri va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi funksiyalari	80
Mo‘minjon Shavqiddin o‘g‘li Muxiddinov Erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha xorij tajribasidan foydalanish	83
Behzod Berkinbayevich Qarshiyev O‘zbekistonda pullik tibbiy xizmatlar rivojlanishi	89
Akmal Ahtamovich Nizamov Yangi integratsiyalashgan tarmoqli-analitik model asosida logistik xizmatlarini optimallashtirish	95
TURIZM VA MEHMONXONA XO‘JALIGI	
Шухрат Хасанович Саттаров Современные тенденции и перспективы развития туризма в условиях цифровой экономики	100
Дилафруз Каршиевна Усманова Особенности применения форсайт-технологий в повышении конкурентоспособности национального туризма	104
Diyora Istamovna Ochilova, Rayhona Sadriddinovna Amriddinova Turistik xizmatlar nomoddiyligi va iste’molchi tajribasi: sifat hamda qiymatga asoslangan baholash	110
Оқила Сатимбаева Элликқалға туманида туризмнинг ривожлантириш имкониятлари	114
Nilufar Xabibjonovna Xolboyeva, Rayhona Sadriddinovna Amriddinova Mijozni ushlab qolish va yangi mijoz jalb qilishda sodiqlik dasturining o‘rni (Hilton Worldwide misolida)	118
Shohista Bobobekovna Toyirova Tog‘li hududlarda ekologik turizmni rivojlantirishda jahon tajribalari	123
MENEJMENT VA MARKETING	
Muhitdin Aynakulov Sayyohlar temperamentiga asoslangan sayyohlik infratuzilmasini tabaqalashtirilgan holda rejalashtirish modeli	128
Diyor Haqberdiyevich Xolmamatov Ulgurji savdoda marketing logistikasi strategiyasidan foydalanish	130
Xilola Nematovna Ochilova Ijtimoiy tarmoqlarda raqamli biznesni boshqarishning mohiyati va ahamiyati	135
Камилла Бахромовна Суюнова Обеспечение маркетинговой прозрачности бизнеса через цифровой аудит на онлайн-рынках	139
Sanjarbek Komiljon o‘g‘li Boyjigitov Iste’molchi xulq-atvorini tahlil qilishda Engel-Kollat-Blackwell modelidan foydalanish imkoniyatlari	142
Ашур Али Рустам угли Латипов, Паризода Раджаб кизи Алибекова Развитие сравнительного менеджмента за рубежом: кризис универсальной модели и вызов азиатских практик	146
Sadulla Shodiyevich Urazov Liderlikka xulq-atvor yondashuvining nazariy konsepsiyalari va boshqaruv tizimidagi o‘rni	150

- O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni. (2023). “
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2021). Aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Toshkent.
 13. Shanazarov Farrux. (2026). Ijtimoiy xizmatlar tushunchasining mohiyati va tavsifiga oid nazariy qarashlar. Ilg‘or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar” ilmiy elektron jurnalining rasmiy shapkasi va UO‘K: 364:330.101, №1, 178–185.
 14. Todaro, M. P., & Smith, S. C. (2020). Economic Development. 13th ed. Harlow: Pearson Education.

<p>Ф.Шаназаров</p> <p>Влияние социальных услуг на человеческий капитал и их функции в социально-экономическом развитии</p> <p>Аннотация. В статье проведён научно-теоретический анализ роли социальных услуг в формировании и развитии человеческого капитала, а также их влияния на устойчивое социально-экономическое развитие. Раскрыто значение образовательных, медицинских, социальных и трудовых услуг в повышении качества человеческого капитала. Систематизированы этапы развития социальных услуг в Узбекистане и обосновано их экономическое значение.</p> <p>Ключевые слова: социальные услуги, человеческий капитал, устойчивое развитие, социальная политика, экономический рост.</p>	<p>F.Shanazarov</p> <p>The impact of social services on human capital and their functions in socio-economic development</p> <p>Abstract. The article provides a scientific and theoretical analysis of the role of social services in the formation and development of human capital and their impact on sustainable socio-economic development. The significance of education, healthcare, social protection, and employment services in improving the quality of human capital is examined. The stages of social service development in Uzbekistan are systematized, and their economic importance is substantiated.</p> <p>Keywords: social services, human capital, sustainable development, social policy, economic growth.</p>
--	--

Mo‘minjon Shavqiddin o‘g‘li Muxiddinov – SamISI mustaqil izlanuvchisi

ERKIN IQTISODIY ZONALARDA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

Annotasiya. Ushbu maqolada erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarini rivojlantirish masalalari, xususan Yaponiya va Xitoy tajribasi asosida o‘rganilgan. Tadqiqotda erkin hududlarda logistika infratuzilmasi, multimodal transport tizimi, xizmatlar klasteri va bojxona boshqaruvi mexanizmlari tahlil qilinib, ularning samaradorlikka ta’siri aniqlangan. Solishtirma tahlil va empirik tahlillar orqali milliy sharoitga mos logistika xizmatlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: erkin iqtisodiy zonalari, erkin savdo zonalari, logistika xizmatlari, global ta’minot zanjiri, multimodal transport, bojxona boshqaruvi, xizmatlar klasteri, qiymat zanjiri, qadoqlash, markirovka, qayta yig‘ish, sotuvdan keyingi servisi.

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklarda global iqtisodiyotning raqobatbardoshligi ko‘plab mamlakatlarda erkin iqtisodiy zonalari (EIZ)ni rivojlantirishni strategik vazifa sifatida belgilashga turtki berdi. EIZlarning asosiy maqsadi – ishlab chiqarish va xizmatlar sohasida sarmoyani jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish va milliy iqtisodiyotni global qiymat zanjirlariga integratsiya qilishdir. Shu bilan birga, logistika xizmatlari erkin hududlarning samaradorligini belgilovchi eng muhim mexanizm sifatida e’tiborga olinadi. Logistika xizmatlarining sifat va samaradorligi erkin hududlarda ishlab chiqarish, tashish, omborlash, qadoqlash va taqsimot jarayonlarining uzluksizligini ta’minlaydi, kapital va aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshiradi hamda eksport va ichki savdoga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xorijiy tajribalar, xususan Yaponiya va Xitoy namunalarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, erkin hududlarda logistika infratuzilmasini rivojlantirishning samarali strategiyalari bir qator institutsional va amaliy tamoyillarga asoslanadi. Masalan, Yaponiya tajribasida port-logistika

integratsiyasi, multimodal transport tizimining rivoji va “aniq vaqtida yetkazib berish” (Just-in-Time) prinsiplari logistika samaradorligini oshirishda markaziy rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, logistika xizmatlarini yuqori qo‘shilgan qiymatli segmentlarga yo‘naltirish – qadoqlash, markirovka, qayta yig‘ish, sotuvdan keyingi servisi va moliyaviy xizmatlar – ishlab chiqarish va taqsimot zanjirini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Xitoy tajribasi esa erkin hududlarni bosqichma-bosqich integratsiyalashgan kompleks tizimga aylantirish orqali logistika xizmatlarini strategik vositaga aylantirishni namoyish etdi. Dastlab eksportga yo‘naltirilgan qayta ishlash zonalari tashkil etilib, keyinchalik kompleks erkin hududlar ishlab chiqarish, logistika, xizmatlar va ilmiy-tadqiqot faoliyatini birlashtirdi. Bojxona jarayonlarining soddalashtirilishi, raqamlashtirish va “yagona darcha” tizimlari logistika xarajatlarini kamaytirish va operatsion tezlikni oshirishga imkon berdi. Shu orqali Xitoy erkin hududlari milliy va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish markazlariga aylandi.

Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish va ularda logistika xizmatlarini takomillashtirish masalalari nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki global savdo va investitsiyalar oqimini jalb qilish nuqtai nazaridan ham dolzarbdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xorijiy tajribani o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish va rivojlantirishning institutsional modeli ularning logistika tizimi samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Xususan, Z.U.Medjidov tadqiqotlarida ta‘kidlanishicha, jahon amaliyotida maxsus iqtisodiy zonalarni shakllantirishning ikki asosiy institutsional yondashuvi mavjud bo‘lib, ular shartli ravishda “yuqoridan pastga” va “pastdan yuqoriga” tamoyillariga asoslanadi [7].

Birinchi modelda zonalar davlat tashabbusi, davlat investitsiyalari yoki davlat korporatsiyalari ishtirokida tashkil etiladi. Bunday yondashuv logistika infratuzilmasini tezkor shakllantirish, transport yo‘laklarini markazlashgan boshqaruv asosida rivojlantirish hamda strategik eksport-import yo‘nalishlarini muvofiqlashtirish imkonini beradi. Shu sababli Hindiston, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya hamda Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlarida tashkil etilgan zonalarda davlatning faol ishtiroki logistika xizmatlari tizimini dastlabki bosqichdayoq shakllantirishga xizmat qilgan.

Ikkinchi modelda esa zonalar ko‘proq bozor tashabbuslari asosida vujudga keladi. Ayrim mamlakatlarda ular soddalashtirilgan ariza tartibi orqali tashkil etilsa, boshqalarda texnik-iqtisodiy asoslash hujjati davlat tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu yondashuvning ustunligi shundaki, zonalar biznes ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllanadi, natijada logistika xizmatlari bozori talabga moslashgan holda rivojlanadi. AQSh, Kanada va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida logistika xizmatlarining yuqori darajada xususiy sektor tomonidan rivojlantirilishi aynan shu model bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, xorijiy tajriba erkin iqtisodiy zonalarni rivoji doimo muvaffaqiyatli kechavermasligini ham ko‘rsatadi. I.A.Kilunina tadqiqotlariga ko‘ra, ayrim davlatlarda zonalarning kutilgan natijani bermasligi bir qator omillar bilan bog‘liq. Avvalo, siyosiy beqarorlik, investitsion xavfsizlikning yetarli darajada ta‘minlanmasligi logistika tizimiga uzoq muddatli investitsiyalar kirib kelishini sekinlashtiradi. Ikkinchidan, investitsiya rejimining haddan tashqari murakkabligi, bojxona va litsenziyalash jarayonlarining ortiqcha byurokratikligi logistika operatsiyalarining tezligini pasaytiradi. Uchinchidan, zonalarni boshqarish tizimining haddan tashqari markazlashganligi hamda muvofiqlashtirish mexanizmlarining sustligi logistika xizmatlari rivojiga to‘sqinlik qiladi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarini rivojlantirish masalalari, xususan Yaponiya va Xitoy tajribasini o‘rganish orqali milliy sharoitga moslashtirish yo‘llari tahlil qilindi. Tadqiqotda solishtirma tahlil metodidan keng foydalanildi. Bu metod yordamida Yaponiya va Xitoy erkin hududlari tajribasi o‘rganilib, logistika markazlari va port infratuzilmasining integratsiyasi, multimodal transport tizimi va xizmatlar klasterining tashkil etilishi, global qiymat zanjiriga integratsiya va xizmatlar sektorining liberallashtirilishi, bojxona va raqamlashtirilgan boshqaruv tizimlari samaradorligi kabilar tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida erkin iqtisodiy zonalarning klaster modelini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratildi. Bu yondashuv orqali ishlab chiqarish va logistika markazlarini integratsiyalashgan tarzda joylashtirish, xizmatlar, ilmiy-tadqiqot va moliyaviy

sektorlarni bir tizimga birlashtirish, ichki va tashqi transport oqimlarini maqbullashtirish, qiymat zanjirining barcha bo‘g‘inlarida qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida EIZlarning yagona universal tasnifi mavjud emas. Chunki har bir davlat o‘zining iqtisodiy siyosati, geografik joylashuvi, transport imkoniyatlari va investitsion strategiyasidan kelib chiqib zonalar modelini shakllantiradi. Shunga qaramay, xalqaro tajribani umumlashtirish asosida eng ko‘p uchraydigan zonalar turlari ajratiladi. Ushbu zonalar logistika xizmatlarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega, chunki ularning samaradorligi ko‘p jihatdan transport, omborxonalar, bojxonalar, taqsimlash va servis infratuzilmasiga bog‘liq.

Jahon amaliyotida Yaponiya erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishda o‘ziga xos yondashuvni shakllantirgan davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda EIZlar faqat soliq imtiyozlari beriladigan hudud sifatida emas, balki logistika, innovatsiya va tashqi savdo tizimlarini integratsiyalashgan iqtisodiy platforma sifatida rivojlantirilgan. Shu sababli Yaponiya tajribasi EIZda logistika xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha eng samarali modellardan biri sifatida qaraladi.

Yaponiyada EIZlar faqat poytaxt yoki sanoat markazlarida emas, balki hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish maqsadida mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va infratuzilmaviy markazlaridan uzoqda joylashgan, rivojlanish darajasi nisbatan pastroq yoki iqtisodiy faolligi markaziy hududlarga qaraganda sustroq bo‘lgan hududlarda ham tashkil etilgan. Bu yondashuv logistika tizimini mamlakat bo‘ylab muvozanatli rivojlantirishga xizmat qilgan. EIZlarni joylashtirishda quyidagi mezonlar hal qiluvchi omil bo‘lib hisoblanadi:

- xalqaro portlarga yaqinlik;
- aeroport infratuzilmasi mavjudligi;
- temir yo‘l va avtomobil yo‘llari kesishgan nuqtalar;
- ilmiy markazlar va universitetlar mavjudligi;
- eksport yo‘nalishlari bilan bog‘liqlik.

Natijada zonalar ishlab chiqarish hududi emas, balki **logistika tuguni** sifatida shakllangan.

Yaponiyada EIZlar samaradorligi birinchi navbatda logistika imkoniyatlari bilan baholanadi. Mamlakat tajribasi shuni ko‘rsatadiki, investitsiya jalb qilishdan oldin transport-logistika tizimi tayyor holga keltiriladi. Birinchidan, port-logistika integratsiyasi yo‘lga qo‘yilgan. Yaponiya EIZlarining aksariyati yirik dengiz portlari bilan bog‘langan. Bu esa eksport-import operatsiyalarini tezlashtiradi, konteyner logistikasini arzonlashtiradi, tranzit savdoni rivojlantiradi, ishlab chiqarish korxonalarini global ta‘minot zanjiriga ulaydi. Portlar yonida maxsus logistika parklarining barpo etilishi ishlab chiqaruvchi kompaniyalar uchun yukni saqlash, qayta qadoqlash va konsolidatsiya qilish imkonini yaratadi.

Ikkinchidan, aeroport logistikasi va tezkor yetkazib berishga alohida e‘tibor beriladi. Yaponiyada yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportiga mo‘ljallangan EIZlar ko‘pincha xalqaro aeroportlar yaqinida tashkil etilgan. Bu model elektronika va IT mahsulotlari eksportini tezlashtiradi, farmatsevtika logistikasini rivojlantiradi, tez buziluvchi mahsulotlar yetkazib berish vaqtini qisqartiradi, e-commerce logistikasini qo‘llab-quvvatlaydi. Natijada logistika nafaqat tashish, balki vaqt omilini boshqarish vositasiga aylanadi.

Uchinchidan, bojxonalar va logistika jarayonlarining soddalashtirilishi ta‘minlangan. Yaponiya EIZlarining muhim xususiyati – tashqi savdo operatsiyalarining maksimal darajada soddalashtirilganidir. Bunda import bojlarining kamaytirilishi yoki bekor qilinishi, tezkor bojxonalar rasm hookup tizimi, elektron deklaratsiya, yuklarni oldindan rasmiylashtirish, tranzit yuklar uchun alohida tartib joriy qilingan. Bu tizim logistika vaqtini qisqartirib, EIZlarning investitsion jozibadorligini oshiradi.

To‘rtinchidan, Ilmiy markazlar va logistika sinergiyasiga alohida e‘tibor beriladi. Yaponiya tajribasida ayrim zonalar innovatsion klaster sifatida rivojlantirilgan. Bunday hududlarda universitetlar, ilmiy tadqiqot institutlari, texnoparklar, startup inkubatorlari joylashgan bo‘lib, logistika tizimi ilmiy ishlab chiqarish sikliga moslashtirilgan. Bu esa o‘z navbatida yangi mahsulotlar sinov logistikasini, kichik partiyali ishlab chiqarish ta‘minotini, yuqori qiymatli komponentlar yetkazib berishini, samarali tashkil etishga imkon beradi.

Beshinchidan, logistika xarajatlarini pasaytirish strategiyasini keng qo‘llanilishi. Yapo-

niya EIZlarida logistika xarajatlarini kamaytirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu borada Yaponiyada logistika infratuzilmasini davlat hisobidan qurish, ombor xizmatlariga subsidiyalar berish, eksport sug‘urtasi mexanizmlari, logistika operatorlari uchun soliq imtiyozlari va logistika platformalarini raqamlashtirish amalga oshirilgan. Natijada EIZlarda ishlab chiqarish xarajatlarining sezilarli darajada kamayishiga erishilgan.

Xitoy EIZlar siyosatini bir martalik loyiha sifatida emas, balki bosqichma-bosqich chuqurlashib borgan institutsional transformatsiya sifatida shakllantirdi. Dastlab 1990-yillarda savdoni liberallashtirish va eksportni rag‘batlantirish maqsadida erkin savdo hududlari barpo etildi. Keyingi bosqichda qayta ishlashga ixtisoslashgan zonalar paydo bo‘lib, ular global ishlab chiqarish zanjirlariga tez integratsiyani ta‘minladi. 2000-yillarning o‘rtalaridan boshlab kompleks zonalar modeli joriy qilinib, logistika, ishlab chiqarish, xizmatlar va ilmiy-tadqiqot faoliyati yagona klaster doirasida birlashtirildi. 2013 yildan boshlab esa pilot erkin savdo zonalarini orqali moliyaviy, xizmatlar va investitsiya rejimlari chuqur isloh qilindi. Mazkur evolyutsiya shuni ko‘rsatadiki, logistika xizmatlari rivoji savdo soddalashtirilishidan boshlab, keyinchalik qiymat zanjirining barcha bo‘g‘inlarini qamrab oluvchi integratsiyalashgan modelga o‘tdi.

Xitoy tajribasining muhim institutsional yangiligi – nazorat va bojxona boshqaruvida moslashuvchan yondashuvdir. Erkin hududlar milliy hudud tarkibida bo‘lsa-da, bojxona rejimlari nuqtai nazaridan alohida tartib qo‘llanildi. Bu esa tranzit va reeksport operatsiyalarini tezlashtirdi, bojxona rasmiylashtiruvini soddalashtirdi, logistika xarajatlarini kamaytirdi, vaqt omilini optimallashtirdi. Natijada, logistika markazlari nafaqat ichki bozorni, balki mintaqaviy va global savdoni ham qamrab oluvchi tranzit tugunlarga aylandi.

Xitoyda erkin hududlar asosan portlar, sanoat markazlari va yuqori texnologiyalar zonalarini negizida shakllantirildi. Bunday joylashuv dengiz va quruqlik transporti integratsiyasini ta‘minladi, multimodal tashishni rivojlantirdi, logistika va ishlab chiqarish o‘rtasidagi masofani qisqartirdi.

Keyingi bosqichda logistika parklari va port erkin hududlari paydo bo‘lib, ular xalqaro yuk oqimlarini qayta taqsimlash markazlariga aylandi. Bu model logistika xizmatlarini oddiy omborlashdan yuqori qo‘shilgan qiymatli xizmatlarga (qadoqlash, markirovka, qayta yig‘ish, servis, moliyaviy xizmatlar) o‘tkazdi.

2006 yildan boshlab kompleks zonalar doirasida ishlab chiqarishdan tashqari quyidagi faoliyatlar ham rivojlantirildi:

- ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari;
- post-sotuv servisi va ta‘mirlash;
- logistika va distribusiyasi;
- moliyaviy va sug‘urta xizmatlari.

Bu yondashuv logistika xizmatlarini oddiy transport operatsiyasidan global qiymat zanjirining muhim bo‘g‘iniga aylantirdi. Erkin hududlar “ishlab chiqarish markazi” maqomidan “diversifikatsiyalashgan iqtisodiy rivojlanish markazi” maqomiga o‘tdi.

Dastlabki bosqichda zonalar asosan qirg‘oqbo‘yi hududlarda joylashgan bo‘lsa, keyinchalik ichki mintaqalarga ko‘chirish siyosati amalga oshirildi. Bu hududlararo logistika zanjirlarini mustahkamladi, ichki ishlab chiqarishni rag‘batlantirdi, transport infratuzilmasini kengaytirishga turtki berdi.

Natijada, logistika markazlari mamlakat ichkarisida sanoat migratsiyasini qo‘llab-quvvatlovchi tayanch platformaga aylandi.

Xitoy tajribasi asosida erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarini rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlarini alohida ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

1. Bosqichma-bosqich institutsional islohotlar – savdoni soddalashtirishdan boshlab, kompleks qiymat zanjiri modeligacha evolyutsiya.

2. Port va sanoat klasterlariga integratsiya – logistika infratuzilmasini ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘lash.

3. Global sanoat migratsiyasidan foydalanish – ko‘chib kelayotgan ishlab chiqarish tarmoqlarini logistika jihatdan qo‘llab-quvvatlash.

4. Raqamlashtirish va bojxona jarayonlarini optimallashtirish – vaqt va xarajatlarni qisqartirish.

5. Hududiy muvozanatni ta'minlash – ichki rayonlarda logistika klasterlarini rivojlantirish.

6. Xizmatlar sektorini chuqur liberallashtirish – moliyaviy, sug'urta va servis xizmatlarini kengaytirish.

Mazkur tajriba shuni ko'rsatadiki, erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarini rivojlantirish oddiy infratuzilma qurilishi bilan cheklanmaydi. Balki quyidagilarni huquqiy rejimni moslashtirish, bojxona soddalashtiruv, klasterli yondashuv, global qiymat zanjiriga integratsiya, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etishni talab qiladi.

Shunday qilib, Xitoy modeli EIZlarni logistika xizmatlari orqali sanoat modernizatsiyasi va tashqi savdo integratsiyasining strategik platformasiga aylantirish mumkinligini ko'rsatmoqda. Ushbu yondashuv boshqa rivojlanayotgan davlatlar uchun ham amaliy va ilmiy jihatdan muhim tajriba hisoblanadi.

Xulosa va takliflar Erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha Yaponiya va Xitoy tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, mazkur yo'nalish iqtisodiy modernizatsiya, tashqi savdo integratsiyasi va global qiymat zanjirlariga qo'shilishning muhim institutsional instrumenti hisoblanadi. Har ikki davlat tajribasi logistika infratuzilmasini rivojlantirishni faqat transport yoki ombor tizimi bilan cheklamay, uni sanoat siyosati, investitsion muhit va bojxona boshqaruvi bilan uyg'un holda olib borish zarurligini tasdiqlaydi.

Xitoy modeli bosqichma-bosqich institutsional transformatsiya orqali erkin hududlarni global ishlab chiqarish va logistika markazlariga aylantirdi. Dastlab eksportga yo'naltirilgan qayta ishlash zonalarini tashkil etilib, keyinchalik kompleks zonalar orqali ishlab chiqarish, logistika, ilmiy-tadqiqot va moliyaviy xizmatlar integratsiyasi ta'minlandi. Bojxona jarayonlarining soddalashtirilishi, “yagona darcha” tizimlarining joriy etilishi va xizmatlar sektorining liberallashtirilishi logistika samaradorligini keskin oshirdi. Natijada erkin hududlar milliy iqtisodiyotning o'sish nuqtalariga aylandi.

Yaponiya tajribasi esa yuqori texnologiyalar, sifat menejmenti va logistika jarayonlarining aniq rejalashtirilishi orqali samaradorlikni ta'minlashga asoslangan. Logistika tizimida “aniq vaqtida yetkazib berish” (Just-in-Time), klasterli sanoat joylashuvi va port-logistika integratsiyasi mexanizmlari ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va zaxiralarni optimallashtirish imkonini bergan. Shuningdek, logistika infratuzilmasining yuqori darajadagi raqamlashtirilishi va multimodal transport tizimining rivojlanishi xalqaro savdo oqimlarini tezlashtirgan.

Olib borilgan tadqiqotlardan kelib chiqib, quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarining samaradorligi huquqiy rejimning barqarorligi va bojxona tartibotlarining soddalashtirilishiga bevosita bog'liq.

2. Logistika infratuzilmasi sanoat klasterlari bilan integratsiyalashgan holda rivojlantirilganda yuqori qo'shilgan qiymat yaratiladi.

3. Raqamlashtirish va innovatsion boshqaruv texnologiyalari logistika xarajatlarini qisqartirish hamda operatsion tezlikni oshirishning asosiy omilidir.

4. Global sanoat migratsiyasidan samarali foydalanish erkin hududlarda yangi logistika tugunlarini shakllantirish imkonini beradi.

5. Xizmatlar sektorini liberallashtirish logistika xizmatlari sifatini va investitsiya jozibadorligini oshiradi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, erkin iqtisodiy zonalarda bojxona boshqaruvini to'liq raqamlashtirish va “yagona darcha” mexanizmini keng joriy etish zarur. Bu yuklarni rasmiylashtirish vaqtini qisqartiradi va tranzit salohiyatini oshiradi.

Ikkinchidan, port-logistika markazlarini sanoat zonalarini bilan integratsiyalashgan klaster modeli asosida rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv ishlab chiqarish va distribusiyaga zanjirlarini qisqartiradi hamda transport xarajatlarini kamaytiradi.

Uchinchidan, logistika xizmatlarini yuqori qo'shilgan qiymatli segmentlarga yo'naltirish lozim. Qadoqlash, markirovka, qayta yig'ish, servis va post-sotuv xizmatlarini erkin hududlar doirasida rivojlantirish global qiymat zanjiriga chuqurroq integratsiyani ta'minlaydi.

To'rtinchidan, ichki hududlarda logistika infratuzilmasini kengaytirish orqali hududiy nomutanosiblikni kamaytirish mumkin. Xitoy tajribasida kuzatilganidek, logistika markazlarining

ichki mintaqalarga ko‘chirilishi sanoat migratsiyasini qo‘llab-quvvatlaydi.

Beshinchidan, Yaponiya tajribasidan kelib chiqib, logistika jarayonlarida sifat menejmenti, aniqlik va vaqt omiliga asoslangan boshqaruv tizimlarini joriy etish lozim. Bu zaxiralar hajmini optimallashtirish va kapital aylanish tezligini oshirishga xizmat qiladi.

Oltinchidan, erkin hududlarda logistika xizmatlarini rivojlantirishni investitsion siyosat bilan uyg‘unlashtirish, xususan, xorijiy logistika operatorlari va xalqaro kompaniyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, Yaponiya va Xitoy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarini rivojlantirish iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, eksport salohiyatini oshirish va milliy iqtisodiyotni global qiymat zanjirlariga integratsiyalashning samarali vositasidir. Mazkur tajribani milliy sharoitga moslashtirilgan holda qo‘llash erkin iqtisodiy zonalarining raqobatbardoshligini oshirish va logistika samaradorligini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдюшева Д.Р. Условия построения системы «Цифрового» транспорта и логистики / Д. Р. Абдюшева, А. А. Степанов, А. О. Меренков // Шаг в будущее: искусственный интеллект и цифровая экономика: материалы 1-й Международной научно-практической конференции. Вып. 1. – М. : Издательский дом ГУУ, 2017. – С. 6–10. 2.
2. Aggarwal A. SEZs and economic transformation: towards a development approach to SEZs and global experience // Transnational corporations. 2019. Vol. 26, No. 2. P. 27–47.
3. Bost F. Special economic zones: methodological and definition issues // Transnational corporations. 2019. Vol. 26, No. 2. P. 141–153.
4. Бубнова, Г. В. Цифровая логистика и безопасность цепей поставок / Г. В. Бубнова, П. В. Куренков, А. Г. Некрасов // Логистика. – 2017. – №7 (128). – С. 46–50.
5. Килунина И.А. Особенности формирования особых экономических зон и проблемы их функционирования // Актуальные вопросы современной экономики. 2018. №5. С. 144-149
6. Крюкова Е.В., Мацуй Е.А. Оптимизация логистики транспортной сферы особой экономической зоны как драйвер ее развития // Экономические системы, 2021. – Том 14. № 4 (55). – С. 88-97.
7. Меджидов З.У. Зарубежный опыт функционирования особых экономических зон // Вестник волжского университета им. В.Н. Татищева. 2016. №1. С. 207-215.

<p>М.Мухиддинов</p> <p>Использование зарубежного опыта для развития логистических услуг в свободных экономических зонах</p> <p>Аннотация. В данной статье исследуются вопросы развития логистических услуг в свободных экономических зонах на основе опыта Японии и Китая. В исследовании проанализированы логистическая инфраструктура, мультимодальная транспортная система, кластеры услуг и механизмы таможенного управления в свободных зонах, а также их влияние на эффективность функционирования. На основе сравнительного анализа и эмпирических исследований разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию логистических услуг с учётом национальных условий.</p> <p>Ключевые слова: свободные экономические зоны, зоны свободной торговли, логистические услуги, глобальная цепь поставок, мультимодальный транспорт, таможенное управление, кластеры услуг, цепь создания стоимости, упаковка, маркировка, повторная сборка, послепродажное обслуживание.</p>	<p>M.Mukhiddinov</p> <p>Utilizing International Experience for the Development of Logistics Services in Free Economic Zones</p> <p>Abstract. This article examines the development of logistics services in free economic zones based on the experiences of Japan and China. The study analyzes logistics infrastructure, multimodal transport systems, service clusters, and customs management mechanisms within free zones, and evaluates their impact on operational efficiency. Based on comparative analysis and empirical studies, scientific and practical recommendations are proposed for optimizing logistics services in accordance with national conditions.</p> <p>Keywords: free economic zones, free trade zones, logistics services, global supply chain, multimodal transport, customs management, service clusters, value chain, packaging, labeling, reassembly, after-sales service.</p>
---	---

ISSN 2091-5187

☞ “SERVIS” ☞

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

06.03.2026 yilda terishga berildi. 19.03.2026 yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0031A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.

Litsenziya № 025316.

Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.